



O'ZBEKISTONDA MONETAR SIYOSAT VA TASHQI IQTISODIY MUVOZANAT MUAMMOLARI

Solijonova Muxlisaxon

Toshkent xalqaro universiteti

ORCID: 0009-0005-9922-9773

smuxlisa1997@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda monetar siyosatning tashqi iqtisodiy muvozanatga, xususan savdo balansiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari monetar siyosat instrumentlari savdo balans holatiga qisqa va uzoq muddatlarda turlicha ta'sir ko'rsatishini aniqlaydi. Olingan xulosalar monetar siyosatni tashqi savdo va tarkibiy islohotlar bilan uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: monetar siyosat, savdo balans, tashqi iqtisodiy muvozanat, inflyatsiya, valyuta kursi.

МОНЕТАРНАЯ ПОЛИТИКА И ПРОБЛЕМЫ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОГО РАВНОВЕСИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Солижоновна Мухлисaxon

Ташкентский международный университет

Аннотация. В статье анализируется влияние монетарной политики на внешнеэкономическое равновесие, в частности на торговый баланс Узбекистана. Результаты исследования показывают, что инструменты монетарной политики оказывают различное влияние на торговый баланс в краткосрочном и долгосрочном периодах. Сделан вывод о необходимости согласования монетарной политики с внешнеторговыми и структурными реформами.

Ключевые слова: монетарная политика, торговый баланс, внешнеэкономическое равновесие, инфляция, валютный курс.

MONETARY POLICY AND EXTERNAL ECONOMIC IMBALANCE IN UZBEKISTAN

Solijonova Mukhlisaxon

Tashkent International University

Abstract. This article examines the impact of monetary policy on external economic equilibrium, with a particular focus on Uzbekistan's trade balance. The findings indicate that monetary policy instruments affect the trade balance differently in the short and long run. The study emphasizes the need to coordinate monetary policy with trade and structural reforms.

Keywords: monetary policy, trade balance, external equilibrium, inflation, exchange rate.

Kirish.

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotidagi turli shoklar va global moliyaviy o'zgarishlar ochiq iqtisodiy munosabatlarga ega davlatlar uchun tashqi iqtisodiy muvozanatni saqlab qolish masalasini yana-da muhim qilib qo'ydi. Bu sharoitda monetar siyosat tashqi iqtisodiy barqarorlikni rag'batlantirish, inflyatsiyani nazorat qilish va savdo balansi disbalanslarini kamaytirishda muhim instrument sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyoti ham tashqi savdo hajmi jog'ari darajada bog'liqlik xususiyatiga ega. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil yanvar-oktyabr davrida tashqi savdo aylanmasi 75,4 mlrd AQSh dollariga yetib, savdo balansi saldosi -19,8 mlrd AQSh dollari atrofida shakllangan (Stat.uz, 2025). Bu ko'rsatkich savdo balansidagi muvozanatsizlik O'zbekiston iqtisodiyotida monetar siyosat ta'sirini o'rganishning dolzarbligini ko'rsatadi.

Monetar siyosatning tashqi iqtisodiy muvozanatga ta'siri, avvalo, inflyatsiya darajasi, foiz stavkalari va valyuta kursi dinamikasi orqali namoyon bo'ladi. O'zbekiston Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda inflyatsiya darajasi o'rtacha 8,6-9,2% atrofida bo'lib, asosiy foiz stavkasi inflyatsiyani nazorat qilish maqsadida 13,5% darajasida saqlanmoqda (Central Bank of Uzbekistan, 2024). Bu holat ichki talab, import ehtiyojlari va milliy valyuta kursiga ta'sir ko'rsatib, tashqi iqtisodiy muvozanatga ham bilvosita ta'sir etuvchi muhim omil hisoblanadi.

Shu munosabat bilan, O'zbekistonda monetar siyosati vositalari orqali tashqi iqtisodiy muvozanatni ta'minlash mexanizmlarini tahlil qilish va mavjud muammolarni aniqlash bu tadqiqotning asosiy maqsadi bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Monetar siyosatning tashqi iqtisodiy muvozanatga ta'siri masalasi xalqaro makroiqtisodiy tadqiqotlarda keng o'rganilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda nazariy va empirik yondashuvlar shakllangan. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda monetar siyosatning savdo balansiga ta'siri, asosan, valyuta kursi, inflyatsiya va foiz stavkasi orqali amalga oshuvchi transmissiya kanallari asosida tahlil qilinadi.

Jumladan, Ghosh va Ostry (2009) ochiq iqtisodiyot sharoitida monetar siyosat tashqi iqtisodiy disbalanslarni yumshatishda muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydilar. Mualliflar valyuta kursi moslashuvchanligi savdo balansi barqarorligini ta'minlashda asosiy mexanizm sifatida namoyon bo'lishini empirik jihatdan asoslab beradi. Shu bilan birga, Frankel (2012) monetar siyosat va tashqi muvozanat o'rtasidagi bog'liqlikni xalqaro kapital harakati va almashuv kursi rejimi bilan bog'lab tahlil qiladi.

Reinhart va Rogoff (2010) tadqiqotlarida yuqori inflyatsiya va tashqi qarz darajasi tashqi iqtisodiy muvozanatga salbiy ta'sir etuvchi omillar sifatida baholanadi. Mualliflar makroiqtisodiy beqarorlik tashqi savdo va to'lov balansi disbalanslarini kuchaytirishini ta'kidlaydilar. Ball, Gagnon va Honohan (2019) esa inflyatsiyani maqsadlash siyosati ochiq iqtisodiyotli mamlakatlarda tashqi shoklarga moslashuvni yaxshilashini ko'rsatib beradi.

Mahalliy tadqiqotlarda O'zbekistonda monetar siyosatning makroiqtisodiy ta'siri masalasi so'nggi yillarda faol o'rganilmoqda. Qurbonov (2021) Markaziy bankning asosiy monetar instrumentlari inflyatsiya va valyuta kursi dinamikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Muallif tashqi iqtisodiy muvozanatni ta'minlashda inflyatsiyani barqarorlashtirish muhim ekanini qayd etadi.

Abduraxmonov va Xodjamurotova (2022) inflyatsiyani maqsadlash rejimiga o'tish jarayonining makroiqtisodiy natijalarini tahlil qilib, tashqi iqtisodiy barqarorlik uchun institusional islohotlar ahamiyatini ko'rsatadilar. Shuningdek, Normatov (2023) valyuta kursi va savdo balansi o'rtasidagi bog'liqlikni O'zbekiston misolida empirik jihatdan asoslab, monetar siyosat tashqi muvozanatga bilvosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi.

MDH mamlakatlari tajribasi ham ushbu masalani chuqurroq anglash imkonini beradi. Masalan, Ivanov (2020) Rossiya iqtisodiyoti misolida monetar siyosatning savdo balansi va

to'lov balansiga ta'sirini VAR modeli asosida baholaydi. Suleymenov (2021) Qozog'istonda foiz stavkasi va valyuta kursi tashqi iqtisodiy muvozanatni shakllantiruvchi asosiy kanallar ekanini ko'rsatadi. Kozlov va Petrova (2019) Belarus iqtisodiyotida monetar siyosatning tashqi shoklarga javob berishdagi cheklovlarini tahlil qiladi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, monetar siyosat tashqi iqtisodiy muvozanatga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, biroq ushbu ta'sir mamlakatning ochiqlik darajasi, institusional muhiti va valyuta kursi rejimiga bog'liq holda farqlanadi. Bu esa O'zbekiston misolida mazkur masalani kompleks empirik tahlil qilish zaruratini yana-da kuchaytiradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Nazariy asos sifatida monetar siyosat, ochiq iqtisodiyot va tashqi iqtisodiy muvozanat konsepsiyalari o'rganildi. Empirik tahlil O'zbekiston Markaziy banki va Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlariga tayangan holda amalga oshirildi. Tadqiqotda taqqoshlama va mantiqiy-tuzilmaviy tahlil usullari orqali monetar ko'rsatkichlar va savdo balans o'rtasidagi bog'liqlik baholandi. Olingan natijalar umumlashtirish va tahliliy xulosalar chiqarish orqali izohlandi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekistonda monetar siyosat va tashqi iqtisodiy muvozanat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, savdo balans holati ko'p jihatdan monetar siyosat instrumentlari orqali shakllanuvchi makroiqtisodiy omillarga bog'liq. Xususan, inflyatsiya darajasi, foiz stavkasi va valyuta kursi dinamikasi import va eksport oqimlariga bilvosita, ammo sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, qat'iy monetar siyosat sharoitida foiz stavkalarining yuqori darajada saqlanishi ichki talabni nisbatan cheklab, import hajmlarining o'sish sur'atini sekinlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Biroq, ushbu holat bir vaqtning o'zida investitsion faollikka ham bosim o'tkazib, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish imkoniyatlarini qisqa muddatda cheklashi mumkin. Bu esa monetar siyosatning savdo balansiga ta'siri bir yoqlama emas, balki muvozanatli yondashuvni talab etishini ko'rsatadi.

Valyuta kursi kanali orqali o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, milliy valyutaning nisbatan qadrsizlanishi eksport raqobatbardoshligini oshiruvchi omil bo'lsa-da, import tarkibida oraliq va investitsion tovarlar ulushi yuqori bo'lgan sharoitda savdo balans holatiga kutilgan darajada ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi. Bu holat O'zbekiston tashqi savdosining tarkibiy xususiyatlari, xususan, importga yuqori bog'liqlik bilan izohlanadi.

Inflyatsiya omili savdo balansiga bilvosita ta'sir ko'rsatib, real almashuv kursi va ichki narxlar nisbatini o'zgartiradi. Tahlil natijalariga ko'ra, inflyatsiyaning yuqori sur'atlari ichki ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini pasaytirib, eksport salohiyatini cheklaydi hamda importga bo'lgan talabni kuchaytiradi. Shu sababli inflyatsiyani barqaror darajada ushlab turish tashqi iqtisodiy muvozanatni ta'minlashda muhim shartlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, olingan natijalar monetar siyosatning savdo balansiga ta'siri qisqa va uzoq muddatlarda turlicha namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Qisqa muddatda monetar choralar asosan ichki talab va import hajmlariga ta'sir etsa, uzoq muddatda ular ishlab chiqarish tarkibi, eksport salohiyati va tashqi raqobatbardoshlik orqali tashqi iqtisodiy muvozanatga ta'sir ko'rsatadi. Bu esa O'zbekistonda monetar siyosatni tashqi savdo va tarkibiy islohotlar bilan uyg'unlashtirish zarurligini tasdiqlaydi.

O'zbekistonda monetar siyosatning tashqi iqtisodiy muvozanatga ta'sirini umumlashtirib baholash maqsadida savdo balans va asosiy monetar ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqliklar tahlil qilindi. Tahlil jarayonida inflyatsiya darajasi, asosiy foiz stavkasi, valyuta kursi va ichki talab kabi omillar savdo balans shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi

aniqlashtirildi. Ushbu omillarning ta'sir yo'nalishi va kuchini tizimli ravishda ko'rsatish maqsadida quyidagi jadval tuzildi.

1-jadval

O'zbekistonda monetar siyosat ko'rsatkichlarining savdo balansiga ta'siri

Monetar ko'rsatkich	Nazariy kutilgan ta'sir	Kuzatilgan ta'sir	Ta'sir yo'nalishi	Iqtisodiy izoh
Inflyatsiya darajasi	Salbiy	Kuchli	Salbiy	Yuqori inflyatsiya eksport raqobatbardoshligini pasaytirib, import talabini oshiradi
Asosiy foiz stavkasi	Aralash	O'rtacha	Qisqa muddatda salbiy	Yuqori stavkalar ichki talab va importni cheklaydi, ammo инвестиция фаоллигини пасайтиради
Valyuta kursi (UZS/USD)	Ijobiy (qadrsizlanish)	Cheklangan	Zaif ijobiy	Import tarkibida oraliq va investitsion tovarlar ulushi yuqori
Ichki talab	Salbiy	Kuchli	Salbiy	Talabning oshishi import hajmlarining ko'payishiga olib keladi
Eksport salohiyati	Ijobiy	Zaif	Ijobiy	Tarkibiy cheklovlar eksport hajmining tez o'sishini cheklaydi

Manba: muallif tomonidan O'zbekiston Markaziy banki (2024) va Davlat statistika qo'mitasi (2025) ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Jadval ma'lumotlari O'zbekistonda monetar siyosat va savdo balansini o'rtasidagi bog'liqlik murakkab va ko'p omilli ekanini ko'rsatadi. Tahlil natijalariga ko'ra, inflyatsiya darajasi savdo balansiga eng barqaror salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi. Inflyatsiyaning oshishi ichki narxlar darajasini ko'tarib, milliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini pasaytiradi hamda importga bo'lgan talabni kuchaytiradi.

Asosiy foiz stavkasi orqali ta'sir qisqa muddatda ichki talab va import hajmlarini cheklovchi omil sifatida namoyon bo'lsa-da, uzoq muddatda investitsion faollikning pasayishi orqali eksport salohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu holat monetar siyosatning savdo balansiga ta'sirini baholashda vaqt omilini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Valyuta kursi kanali orqali ta'sir nisbatan cheklangan bo'lib, milliy valyutaning qadrsizlanishi eksportni rag'batlantiruvchi omil bo'lishiga qaramay, import tarkibida oraliq va investitsion tovarlar ulushining yuqoriligi ushbu ijobiy ta'sirni sezilarli darajada susaytiradi. Umuman olganda, jadval natijalari monetar siyosat tashqi iqtisodiy muvozanatni ta'minlashda muhim vosita ekanini, biroq uning samaradorligi tarkibiy islohotlar va eksport salohiyatini oshirish choralari bilan uyg'unlashgan holdagina kuchayishini tasdiqlaydi.

Monetar siyosatning tashqi iqtisodiy muvozanatga ta'siri vaqt omiliga bog'liq holda turlicha namoyon bo'lishini hisobga olgan holda, qisqa va uzoq muddatli ta'sirlarni alohida tahlil qilish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, monetar instrumentlarning dastlabki ta'siri bilan ularning iqtisodiyot tarkibiga singib borishi natijasida yuzaga keladigan uzoq muddatli natijalar o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. Ushbu farqlarni tizimli tarzda aks ettirish maqsadida quyidagi jadval shakllantirildi.

2-jadval ma'lumotlari monetar siyosatning savdo balansiga ta'siri vaqt bo'yicha farqlanishini yaqqol ko'rsatadi. Qisqa muddatda monetar siyosat asosan ichki talab va import hajmlarini tartibga solish orqali savdo balansiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, foiz stavkalarining oshirilishi qisqa muddatda ichki talabni cheklab, import o'sish sur'atlarini sekinlashtiruvchi ijobiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Biroq uzoq muddatli nuqtai nazardan, qat'iy monetar siyosat investitsiya faolligining pasayishiga olib kelib, ishlab chiqarish hajmlari va eksport salohiyatini cheklashi mumkin. Shu sababli, monetar siyosatning savdo balansiga bo'lgan uzoq muddatli ta'siri ko'pincha salbiy yoki neytral tus oladi.

Valyuta kursi orqali ta'sir ham vaqt omiliga bog'liq. Qisqa muddatda milliy valyutaning qadrsizlanishi eksportni rag'batlantirsa-da, uzoq muddatda import qilinadigan oraliq va

investitsion tovarlar narxining oshishi eksport xarajatlarini ko'paytirib, savdo balansiga bosim o'tkazadi.

2-jadval

O'zbekistonda monetar siyosatning savdo balansiga qisqa va uzoq muddatli ta'siri

Monetar omil	Qisqa muddatli ta'sir	Ta'sir yo'nalishi	Uzoq muddatli ta'sir	Ta'sir yo'nalishi	Iqtisodiy izoh
Inflyatsiya darajasi	Import hajmining oshishi	Salbiy	Eksport raqobatbardoshligining pasayishi	Salbiy	Yuqori inflyatsiya real almashuv kursini yomonlashtiradi
Asosiy foiz stavkasi	Ichki talabning qisqarishi	Ijoby	Investitsiya faolligining pasayishi	Salbiy	Uzoq muddatda ishlab chiqarish va eksport salohiyatiga ta'sir qiladi
Valyuta kursi	Eksport narx ustunligi	Ijoby	Import xarajatlarining oshishi	Salbiy	Import tarkibida oraliq tovarlar ulushi yuqori
Ichki talab	Import tez o'sishi	Salbiy	Savdo balans bosimi	Salbiy	Talab asosan import hisobiga qondiriladi
Eksport salohiyati	Cheklangan o'sish	Zaif ijoby	Barqaror eksport o'sishi	Ijoby	Tarkibiy islohotlar bilan kuchayadi

Manba: muallif tomonidan O'zbekiston Markaziy banki (2024) va Davlat statistika qo'mitasi (2025) ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Umuman olganda, 2-jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda monetar siyosat savdo balansini barqarorlashtirishda muhim vosita bo'lsa-da, uning uzoq muddatli samaradorligi tarkibiy islohotlar, eksport diversifikatsiyasi va ishlab chiqarish bazasini mustahkamlash bilan uzviy bog'liqdir.

Xulosa va takliflar.

Olib borilgan tahlillar O'zbekistonda monetar siyosatning tashqi iqtisodiy muvozanatga, xususan savdo balansiga ta'siri murakkab va ko'p omilli ekanini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, inflyatsiya darajasi savdo balansiga eng barqaror va salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi. Inflyatsiyaning yuqori sur'atlari ichki narxlar o'sishiga olib kelib, milliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini pasaytiradi va importga bo'lgan talabni kuchaytiradi.

Asosiy foiz stavkasi orqali amalga oshiriladigan monetar siyosat qisqa muddatda ichki talab va import hajmlarini cheklash orqali savdo balansiga nisbatan ijoby ta'sir ko'rsatishi mumkin. Biroq uzoq muddatda yuqori foiz stavkalari investitsion faollikni pasaytirib, ishlab chiqarish hajmi va eksport salohiyatini cheklashi ehtimoli mavjud. Bu holat monetar siyosatning savdo balansiga ta'siri vaqt omiliga bog'liq ekanini tasdiqlaydi.

Valyuta kursi kanali orqali ta'sir O'zbekiston sharoitida cheklangan xarakterga ega. Milliy valyutaning qadrsizlanishi eksportni rag'batlantirishi mumkin bo'lsa-da, import tarkibida oraliq va investitsion tovarlar ulushining yuqoriligi mazkur ijoby ta'sirni sezilarli darajada susaytiradi. Shu sababli savdo balansidagi muammolarni faqat monetar vositalar orqali hal etish imkoniyati cheklangan. Umuman olganda, tadqiqot natijalari O'zbekistonda tashqi iqtisodiy muvozanatni ta'minlashda monetar siyosat muhim rol o'ynashini, biroq uning samaradorligi tarkibiy islohotlar, eksport salohiyatini oshirish va tashqi savdo tarkibini diversifikatsiya qilish bilan uzviy bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda qo'yidagi takliflarni shakllantirish mumkin:

Birinchidan, monetar siyosatni shakllantirishda inflyatsiyani barqaror darajada ushlab turish tashqi iqtisodiy muvozanatni ta'minlashning ustuvor yo'nalishi sifatida qaralishi lozim. Inflyasion bosimni cheklash eksport raqobatbardoshligini saqlab qolish va importga ortiqcha talabni kamaytirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, asosiy foiz stavkasini belgilashda qisqa muddatli savdo balansini effektlari bilan bir qatorda, uzoq muddatli investitsiya va eksport salohiyatiga ta'siri ham hisobga olinishi zarur. Bu monetar siyosatning haddan tashqari qat'iylashib ketishining oldini oladi.

Uchinchidan, valyuta kursi siyosatini savdo balansini avtomatik tartibga soluvchi asosiy vosita sifatida emas, balki qo'shimcha mexanizm sifatida qo'llash maqsadga muvofiq. Valyuta kursi barqarorligi import xarajatlarini prognoz qilish va tashqi savdo risklarini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

To'rtinchidan, monetar siyosat tashqi savdo va sanoat siyosati bilan uyg'unlashtirilishi lozim. Xususan, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ulushini oshirish monetar choralar samarasini kuchaytiradi.

Beshinchidan, tashqi iqtisodiy muvozanatni uzoq muddatda ta'minlash uchun eksport tarkibini diversifikatsiya qilish, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish va ishlab chiqarishning texnologik darajasini ko'tarish monetar siyosatni qo'llab-quvvatlovchi asosiy yo'nalishlardan biri bo'lishi lozim.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Abduraxmonov, I. X., & Xodjamurotova, G. (2022). Inflyatsiyani maqsadlash siyosati va makroiqtisodiy barqarorlik. *Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali*, 4, 22–31.

Ball, L., Gagnon, J., & Honohan, P. (2019). Inflation targeting in emerging market economies. *IMF Economic Review*, 67(1), 1–35.

Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2024). *Monetary policy review and inflation developments in 2024*. Tashkent: Central Bank of the Republic of Uzbekistan.

Frankel, J. A. (2012). The role of monetary policy in global imbalances. *Journal of Policy Modeling*, 34(4), 538–551.

Ghosh, A. R., & Ostry, J. D. (2009). Choosing an exchange rate regime: Lessons from the past and recommendations for the future. *IMF Staff Papers*, 56(1), 1–28.

Ivanov, S. V. (2020). Denejno-kreditnaya politika i platejniy balans Rossii. *Voprosi ekonomiki*, 7, 88–102.

Kozlov, A. N., & Petrova, Ye. V. (2019). Denejno-kreditnaya politika i vneshniye disbalansi v Belarusi. *Belorusskiy ekonomicheskij jurnal*, 4, 33–42.

Normatov, B. Sh. (2023). Valyuta kursi va savdo balansini o'rtasidagi bog'liqlik: O'zbekiston misoli. *Moliya va bank ishi*, 2, 60–69.

Qurbonov, A. A. (2021). O'zbekistonda monetar siyosatning inflyatsiyaga ta'siri. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 3, 45–54.

Reinhart, C. M., & Rogoff, K. S. (2010). Growth in a time of debt. *American Economic Review*, 100(2), 573–578.

State Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. (2025). *Foreign trade turnover of the Republic of Uzbekistan (January–October 2025)*. Tashkent: State Statistics Committee.

Suleymenov, A. K. (2021). Monetarnaya politika i vneshneekonomicheskaya ustoychivost Kazaxstana. *Ekonomika i statistika*, 5, 41–50.